O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MEXANIKA-MATEMATIKA fakulteti “MATEMATIK-FIZIKA VA FUNKSIYALAR NAZARIYASI” Kafedrasi

Asadov Feruz

Firidrixs modeli va uning spektrial xossalari

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

5600100- matematika ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr-akademik darajasini olish uchun

Fakultet dekani: proff. A. Soleev

Kafedra mudiri: dots. A.M. Xolxo’jayev

Ilmiy rahbar: **ass. Sh.H. Qurbonov**

Samarqand-2013

Kirish.

Masalaning qo'yilishi. $H=L_2(T^1)$ Hilbert fazosida aniqlangan h_λ Fridrixs model operatorlar oilasining spektrial xossalarini o'rganish.

Mavzuning dolzarbligi. Qattiq jismlar fizikasi kvant mexanikasi statistik fizika matematik fizikaning zamonaviy masalalarini yechishda Fridrixs modelining spektrial masalalarini yechishga to'g'ri keladi. Ishda qaralayotgan operatorning muhim spektri o'rni va muhim spektridan tashqarida yagona xos qiymatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi h_λ Fridrixs modelining muhim spektrdan chapda yagona xos qiymatga ega ekanligini ko'rsatishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot usullari. Funksiyaning nollari chiziqli o'z-o'ziga qo'shma operatorlar nazariyasi, h_λ Fridrixs modeliga mos Fredgolm determinant.

Ishning ilmiy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishiga olingan natijalar referativ xarakterga ega.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida olingan natijalar nazariy ahamiyatga ega.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Har bir bob bo'limlarga ajratilgan va ular o'zining raqamlanish va belgilanishlariga ega. Ishning I bobida asosiy natijani bayon qilish uchun kerakli tushunchalar keltirilgan. II bobida esa masalaning qo'yilishi, olingan natija va uning isboti bayon qilingan.

Olingan natijalar. Ushbu ishda h_λ operatorning muhim spektridan chapda yagona xos qiymatga ega ekanligi ko'rsatilgan va bu xos qiymatga mos xos funksiyaning ko'rinishi topilgan. Bundan tashqari h_λ operatorni $z=0$ nuqtada virtual sathga ega ekanligi va virtual holat ko'rinishi ko'rsatilgan.

I. Bob boshlang'ich tushunchalar

Bu bobda biz ushbu malakaviy bitiruv ishini bayon qilishda kerak bo'ladigan eng asosiy tushunchalar teorema ta'riflarini keltiramiz.

1§.Chiziqli fazo.

Ta'rif 1.1.1. Bo'sh bo'lmagan L to'plam berilgan bo'lsin. Uning elemetlari $x,y,z,\ldots$ bilan belgilaymiz. Agar L to'plamda elementlarni qo'shish va ko'paytirishga amallar kiritilgan bo'lib, ular quyidagi shartlarni qanoatlantirsa L ga chiziqli fazo deyiladi.

I. Ixtiyoriy ikkita $x,y,\in L$ elementlar uchun ularning yig'indisi deb ataluvchi va x+y bilan belgilanuvchi uchinchi $z \in L$ element mavjud bo'lib, quyidagi shartlar bajarilsa:

1) $x+y = y+x$.

2) $x+(y+z) = (x+y)+z$.

3) L da shunaqangi o element mavjudki, ixtiyoriy $x\in L$ uchun $x+o = x$ bo'lib (nol element mavjudligi)

4) ixtiyoriy $x \in L$ uchun shunday -x element topilib, $x+(-x) = o$ bo'lsa (qarama-qarshi element mavjudligi).

II. Ixtiyoriy $\alpha \in C\ (R)$ son va ixtiyoriy $x \in L$ uchun $\alpha \cdot x \in L$ element aniqlangan
bo'lib (x elementni α songa ko'paytirish)

1) $\alpha\ (\beta x) = (\alpha \cdot \beta)x$.

2) $1 \cdot x = x$ bo'lsa, qo'shish va ko'paytirish amallari distributivlik qonunu.

3) $(\alpha + \beta)\, x = \alpha x + \beta x \qquad \alpha,\ \beta \in C\,(R) \quad \forall\ x \in L$

4) $\alpha\,(x + y) = \alpha x + \alpha y \qquad \alpha \in C\,(R)$

$\forall\, x,y \in L$

Agar to'plam elementlari uchun faqat haqiqiy songa ko'paytirish amali aniqlangan bo'lsa, u holda L haqiqiy chiziqli fazo deyiladi.

Misol 1.1.2. $L = l_2$ Fazoni qaraymiz. Elementlari hadlarining modullari kvadratlaridan tuzilgan qator yaqinlashuvchi bo'lgan barcha ketma-ketliklar to'plami ya'ni

$$l_2 = \left\{ x = \{x_i\}_{i=1}^{\infty},\ \sum_{i=1}^{\infty} |x_i|^2 < \infty \right\}$$

Bu fazoda qo'shish va songa ko'paytirish amallarini quyidagicha kiritamiz.

$$x+y = \{x_i\}_{i=1}^{\infty} + \{y_i\}_{i=1}^{\infty} = \{x_i + y_i\}_{i=1}^{\infty}$$

$\alpha x = \{\alpha \cdot x_i\}_{i=1}^{\infty}$ $x \in l_2$, $\alpha \in$ C (R)

Haqiqatdan ham $x,y \in l_2$ bo'lsa

$$\sum_{i=1}^{\infty} |x_i + y_i|^2 \le \sum_{i=1}^{\infty} 2\left(|x_i|^2 + |y_i|^2\right) = 2\left(\sum_{i=1}^{\infty} |x_i|^2 + \sum_{i=1}^{\infty} |y_i|^2\right) < \infty$$

va
$$\sum_{i=1}^{\infty} |x_i|^2 = \sum_{i=1}^{\infty} \alpha^2 |x_i|^2 = \alpha^2 \sum_{i=1}^{\infty} |x_i|^2 < \infty$$

Demak kiritilgan qo'shish va songa ko'paytirish amallari to'g'ri ekan. Endi chiziqli fazo shartlarini qanoatlantirishini tekshiramiz.

1) $\forall x,y \in l_2$ uchun $x+y = \{x_i\}_{i=1}^{\infty} + \{y_i\}_{i=1}^{\infty} = \{y_i\}_{i=1}^{\infty} + \{x_i\}_{i=1}^{\infty} = y+x$

2) $\forall x,y, z \in l_2$ uchun $x+(y+z) = \{x_i\}_{i=1}^{\infty} + (\{y_i\}_{i=1}^{\infty} + \{z_i\}_{i=1}^{\infty}) =$

$(\{x_i\}_{i=1}^{\infty} + \{y_i\}_{i=1}^{\infty}) + \{z_i\}_{i=1}^{\infty} = (x+y) + z.$

3) $\theta = (0,0, . \_, 0, \_) \in l_2$ va ixtiyoriy $x \in l_2$ uchun $(x+0) = (x_1, x_2, \dots, x_n, \dots) +$
$+ (0,0, . \_, 0, \_) = (x_1+0, x_2+0, \dots, x_n+0, \dots) = (x_1, x_2, . \_, x_n, . \_) = x.$

4) Ixtiyoriy $x \in l_2$ uchun -x $\{x_i\}_{i=1}^{\infty}$ mavjud va $x+(-x) = \{x_i\}_{i=1}^{\infty} + \{-x_i\}_{i=1}^{\infty} =$

$= \{x_i - x_i\}_{i=1}^{\infty} = \theta$.

5) Ixtiyoriy $x \in l_2$ element va ixtiyoriy $\alpha + \beta \in$ C (R) sonlar uchun $\alpha(\beta x) =$

$= \alpha \{\beta x_i\}_{i=1}^{\infty} = \{\alpha \beta x_i\}_{i=1}^{\infty} = (\alpha\beta) \{x_i\}_{i=1}^{\infty} = (\alpha\beta)$ x.

6) Ixtiyoriy $x \in l_2$ va ixtiyoriy element uchun $1x = 1 \cdot \{x_i\}_{i=1}^{\infty} = 1 = \{1 \cdot x_i\}_{i=1}^{\infty} = x.$

7) $\forall x \in l_2$ va $\forall \alpha, \beta \in C(R)$ sonlar uchun $(\alpha+\beta)x = (\alpha+\beta)\{x_i\}_{i=1}^{\infty} =$

$= \{(\alpha+\beta) x_i\}_{i=1}^{\infty} = \{\alpha x_i + \beta x_i\}_{i=1}^{\infty} = \alpha \{x_i\}_{i=1}^{\infty} + \beta \{x_i\}_{i=1}^{\infty} = \alpha x + \beta x.$

8) Ixtiyoriy $x, y \in l_2$ va ixtiyoriy $\alpha \in C(R)$ uchun $\alpha(x+y) = \alpha(\{x_i\}_{i=1}^{\infty} +$

$+ \{y_i\}_{i=1}^{\infty}) = \alpha \{x_i\}_{i=1}^{\infty} + \alpha \{y_i\}_{i=1}^{\infty} = \alpha x + \alpha y.$

Demak biz ko'rdikki l_2 fazoning elementlari chiziqli fazo ya'rifi barcha shartlarni qanoatlantiradi. Shuning uchun l_2 chiziqli fazo bo'ladi.

Ta'rif: 1.1.3. L va L * chiziqli fazolar izomarf deyiladi, agar ular elementlari o'rtasida. Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatish mumkin bo'lsa.

$x \longleftrightarrow x^*$ va $y \longleftrightarrow y^*$

$(x,y \in L, \quad x,^* y^* \in L)$ ekanligidan $x + y \longleftrightarrow x^* + y^*$ va

$\alpha x \longleftrightarrow \alpha x^*$ (α ixtiyoriy son) ekanligi kelib chiqsa

Misol 1.1.5. Ixtiyoriy ikkita n o'lchamli haqiqiy chiziqli fazolar izomorfdir.

Haqiqatdan ham L va E. n o'lchamli fazolar , $\ell_1, \ell_2, \_ \ell_n$ va $\ell_1^1, \ell_2^1, \_ \ell_n^1$ - mos ravishda L va E chiziqli fazolarda bazislar bo'lsin.

Ushbu $\varphi(\sum_{i=1}^{n} a_i l_i) = \sum_{i=1}^{n} a_i l_i$

Formula izomorfizmni aniqlaydi, chunki L fazoning ixtiyoriy elementni bu fazo bazisi bilan ifodalash mumkin, ya'ni

$$x = \sum_{i=1}^{n} a_i l_i$$

Xuddi shunday E da ham Demak ixtiyoriy $x,y \in L$ $x = \sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i$; $y = \sum_{i=1}^{n} b_i \ \ell_i$

$\alpha \in R$ bo'lsa, $x+y = \sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i + \sum_{i=1}^{n} b_i \ell_i = \sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i + b_i \cdot \ell_i = \sum_{i=1}^{n} (a_i + b_i) \ell_i$

$\alpha x = \sum_{i=1}^{n} (\alpha a_i) \ \ell_i$ bo'ladi shu sababli $\varphi \ (x+y) = \sum_{i=1}^{n} (a_i + b_i) \ \ell_i = \sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i +$

$+ \sum_{i=1}^{n} b_i \ \ell_i = \varphi \ (x) \ \varphi(y)$

$\varphi \ (\alpha \text{x}) = \sum_{i=1}^{n} (\alpha a_i) \ \ell_i = \alpha \sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i = \alpha \ \varphi$ (x) demak φ chiziqli akslantirish

bo'ladi. Teskari akslantirishni esa $\varphi^{-1} \ (\sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i) = \sum_{i=1}^{n} a_i \ \ell_i$ formula aniqlaydi. Shuning uchun φ biyektivdir.

Ta'rif: 1.1.5. Agar L chiziqli fazoning $x,y, \dots , \omega$ elementlari uchun hech bo'lmaganda bittasi noldan farqli bo'lgan $\alpha , \beta , \dots , \lambda$ sonlar topilib

$$\alpha x + \beta y + ... + \lambda \ \omega = 0. \qquad (2)$$

bo'lsa, $x,y, \dots , \omega$ elementlar chiziqli bog'langan deyiladi.

Agar (2) tenglik faqat $\alpha = \beta = \dots = \lambda = 0$ bo'lganda bajarilsa x,y, … , ω elementlar chiziqli erkli yoki chiziqli bog'lanmagan deyiladi.

Agar x, y, … cheksiz elementlar sistemasining ixtiyoriy qism sistemasi chizikli erkli bo'lsa u halda x, y, … sistema chiziqli erkli deyiladi.

Misol 1.1.6. $C[0, \pi]$ fazoda $x(t) = cos^2 2t$, $1 + cos\, 4t$ ayniyatga

ko'ra $\alpha_1 = 2$, $\alpha_2 = \alpha_3 = -1$ $\alpha_1 x(t) + \alpha_2 y(t) + \alpha_3 z(t) = 0$ munosabat o'rinli bo'ladi. $C[0, \pi]$ fazoda $x(t) = t^2$ $y(t) = sin^2 t$ $z(t)\ cos\, t$ funksiyalar chiziqli bog'lanmagan $\alpha_1 t^2 + \alpha_2 y(t) + \alpha_3 z(t) = 0$ tenglik bajarilsin desak ya'ni barcha $t \in [0, \pi]$ uchun $\alpha_1 t^2 + \alpha_2 sin^2 t + \alpha_3 cos\, t = 0$ tenglik o'rinli bo'lsin. Agar $t = 0$, $t = \frac{\pi}{2}$, $t = \pi$ deb olsak quyidagi $\alpha_3 = 0$,

$\frac{\pi^2}{4}\alpha_1 + \alpha_2 = 0$, $\pi^2 \alpha_1 - \alpha_3 = 0$ tengliklarga ega bo'lamiz. Bu tengliklardan esa $\alpha_1 = \alpha_2 = \alpha_3 = 0$ ekanligi kelib chiqadi.

Ta'rif 1.1.7. Agar L chiziqli fazoda n ta chiziqli bog'lanmagan element topilib, bu fazoning ixtiyoriy n+1 ta elementi chiziqli bog'langan bo'lsa, L fazo n o'lchovli chiziqli dazo deyiladi va dim L = n kabi belgilanadi. n o'lchovli L fazoning bazisi deb bu fazoning bog'lanmagan elementlariga aytiladi.

Misol 1.1.8. $R^n = \{x = (x_1, x_2, \dots x_n) : x_k \in R\}$ chiziqli fazo n o'lchamli, chunki (fazo) n $\ell_1 = (1, 0, \dots, 0)$, $\ell_2 = (0, 1, 0, \dots, 0)$, $\ell_3 = (0,0,1, \dots, 0)$ $\dots$, $\ell_n = (0, 0, \dots, 1)$ vektorlar uchun $\alpha_1 \ell_1 + \alpha_2 \ell_2 + \dots + \alpha_n \ell_n = \theta$ Tenglik faqat $\alpha_1 = \alpha_2 = \dots \alpha_n = 0$ bo'lganda bajariladi. Bu esa $\ell_1, \ell_2, \dots, \ell_n$ vektorlar chiziqli bog'lanmaganligini ko'rsatadi.

Har qanday n+1 ta vektordan iborat $\ell_1 = (1, 0, \dots, 0)$, $\ell_2 = (0, 1, 0, \dots, 0)$, $\dots$, $\ell_n = (0, 0, \dots, 1)$, $\ell_{n+1} = (0, \dots, 1)$ vektorlar sistemasi uchun $\alpha_1 \ell_1 + \alpha_2 \ell_2 + \dots + \alpha_n \ell_n + \alpha_{n+1} \ell_{n+1} = \theta$ tenlik $\alpha_1 = \alpha_2 = \dots \alpha_{n-1} = 0$ va $\alpha_n = -\alpha_{n+1}$ bo'lganda bajariladi. Demak $\ell_1, \ell_2, \dots, \ell_n, \ell_{n+1}$ vektorlar sistemasi chiziqli bog'langan. R^n n o'lchamli chiziqli fazo ekan.

Ta'rif 1.1.9. Agar chiziqli fazoda ixtiyoriy $n \in N$ uchun n ta chiziqli erkli element mavjud bo'lsa, u holda L cheksiz o'lchamli chiziqli fazo deyiladi va dim L = ∞ kabi belgilanadi.

Misol 1.1.10. $l_2 = \{x = \{x_i\}_{i=1}^{\infty},\ \sum_{i=1}^{\infty} |x_i|^2 < \infty\}$

Bu fazo cheksiz o'lchamli, chunki ixtiyoriy $n \in N$ uchun bu fazoda

$$\ell_1 = (1, 0, \dots, 0, \dots)$$
$$\ell_2 = (0, 1, \dots, 0, \dots)$$
$$\ell_n = (0, 0, \dots, 1, 0, \dots 0)$$

elementlar chiziqli bog'lanmagan sistemani tashlik qiladi. Buning uchun bu sistemaning ixtiyoriy chekli qismi $\ell_{n_1}, \ell_{n_2}, ..., \ell_{n_k}$ larni chiziqli erkliligini ko'rsatamiz. $\ell_{n_1}, \ell_{n_2}, ..., \ell_{n_k}$, O'zgarmaslar uchun $x = \alpha_{n_1}\ell_{n_1} + \alpha_{n_2}\ell_{n_2} + ... + \alpha_{n_k}\ell_{n_k}$, elementning $n_1, n_2, ..., n_k$, nomerli koordinatalari mos ravishda $\alpha_{n_1}, \alpha_{n_2}, ..., \alpha_{n_k}$ ga teng bo'ladi. Demak, $x = 0$ dan $\alpha_{n_1}, \alpha_{n_2}, ..., \alpha_{n_k} = 0$ kelib chiqadi.

Ta'rif 1.1.11. L to'plam L chiziqli fazoning bo'sh bo'lmagan qism to'plami bo'lsin. Agar L to'plam L da kiritilgan amallarga nisbatan chiziqli fazoni tashkil qilsa L ga L chiziqli fazoning qism fazosi deyiladi.

Misol 1.1.12. $L = \{\varphi : \varphi(2) = 0, \varphi \in C_{[0,2]}\}$ to'plam $C_{[0,2]}$ - $[0,2]$ da aniqlangan uzluksiz funksiyalar fazosining qism fazosi ekanligini ko'rsatamiz. L to'plam $C_{[0,2]}$ fazoning qism to'plami ixtiyoriy φ, g $\in L$ uchun
$(\varphi + g)(2) = \varphi(2) + g(2) = 0.$
Bundan $\varphi + g \in L$. Ixtiyoriy α son va ixtiyoriy $\varphi \in L$ uchun
$(\alpha\varphi)(2) = \alpha\varphi(2) = 0,$ bundan $\alpha\varphi \in L$. Bu esa L to'plam $C_{[0,2]}$ fazoning qism fazosi ekanligini ko'rsatadi.

Ta'rif 1.1.13. L chiziqli fazo, L^1 uning qism fazosi bo'lsin. Agar x,y$\in L$ elementlar uchun $x - y$ element L^1 ga tegishli bo'lsa, u halda x va y elementlar bitta qo'shni sinfga tegishli deyiladi. Barcha qo'shi sinflar to'plamini L ning L^1 bo'yicha faktor fazosi deb ataladi va L/L^1 ko'rinishda yoziladi. Agar L n o'lchamli chiziqli fazo va uning L qism fazosi m (m$\angle$n) o'lchamga ega bo'lsa, u halda L/L^1 faktor fazo $n - m$ o'lchamga ega bo'ladi.

Misol 1.1.14. $L = R^3$. $L_0 = \{x \in R^3 : x\} = (0, x_2, 0)$ bo'lsin. Agar $a = (a_1, a_2, a_3)$, $b(b_1, b_2, b_3)$ elementlarni a-$b \in L_0$ bo'lish uchun $a_1 = b_1$,

$a_3 = b_3$ shartning bajarilishi zarur va yetarli, a vektor L/L_0 fazoning qaysi sinfiga tegishli bo'lishi $a_1 = a_3$ ga bog'liq ya'ni $\begin{cases} x = x_0 \\ z = z_0 \end{cases}$ to'g'ri chiziqning hamma nuqtalari bir sinfga tegishlidir va aksinchα a har bir sinf R^3 fazoda biror

$$\begin{cases} x = x_0 \\ z = z_0 \end{cases}$$

to'g'ri chiziqni aniqlaydi. Shuning uchun L/L_0 fazoni elementlari $0Y$ o'qqa parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlar deb qarash mumkin.

Ta'rif 1.1.15. L chiziqli fazoning har bir elementiga aniq bir sonni mos qo'yuvchi φ akslantirish funksional deyiladi. φ funksional additiv deyiladi. Agar ixtiyoriy $x,y \in L$ $\varphi(x+y) = \varphi(x) + \varphi(y)$ bo'lsa, φ funksional bir jinsli deyiladi. Agar ixtiyoriy $x \in L$ va ixtiyoriy $\alpha \in R$ son uchun $\varphi(\alpha x) = \alpha\varphi(x)$ bo'lsa additiv bir jinsli φ funksional chiziqli funksional deb ataladi.

Misol 1.1.16. ℓ_p fazoda aniqlangan $\varphi(x) = \sum_{n\in N} \frac{x_n}{2^n}$, $x = (x_1, x_2, \ldots) \in \ell_p$, p>1 funksionalni chiziqli ekanligini ko'rsatamiz. A) $\varphi(x+y) = \sum_{n\in N} \frac{x_n + y_n}{2^n} =$

$= \sum_{n\in N} \left(\frac{x_n}{2^n} + \frac{y_n}{2^n}\right) = \sum \frac{x_n}{2^n} + \sum_{n\in N} \frac{y_n}{2^n} = \varphi(x) + \varphi(y)$ ixtiyoriy $x,y \in \ell_p$,

B) $\forall x \in \ell_p$ va ixtiyoriy $\alpha \in R$ uchun, $\varphi(\alpha x) = \sum_{n\in N} \frac{\alpha x_n}{2^n} = \alpha \sum_{n\in N} \frac{x_n}{2^n} = \alpha\varphi(x)$.

2 §. Normalangan fazo.

Ta'rif 1.2.1. L chiziqli fazo va P unda aniqlangan funksional bo'lsin. Agar P quyidagi 3ta shartni qanoatlantirsa P ga norma deyiladi.

1) $P(x) \geq 0$. $\forall x \in L$ faqat $x=0$ uchun $P(x) = 0$.

2) $P(\alpha x) = |\alpha|\, P(x)$, $\alpha \in C(R)$

3) $P(x+y) \leq P(x) + P(y)$, $x, y, \in L$

Norma kiritilgan L chiziqli fazo normalangan fazo deyiladi va x elementning P (x) normasi odatda $\|x\|$ bilan belgilanadi.

Misol 1.2.2. R^n fazoda normani $\|x\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} |x_i|^2}$, $x = (x_1, x_2, \ldots x_n)$ ko'rinishda kiritamiz. Norma shartlarini tekshiramiz.

1) $\|x\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} |x_i|^2} \geq 0$. $\forall x \in R^n$.

$\|x\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} |x_i|^2} = 0$ $\sum_{i=1}^{n} |x_i|^2 = 0$. $\Rightarrow$ $|x_i|^2 = 0$, i= $\overline{1,n}$ bundan har bir $x_i = 0$, i= $\overline{1,n}$

bundan x=0 kelib chiqadi. Agar x=0 bo'lsa $x_i = 0$ i= $\overline{1,n}$ $|x_i|^2 = 0$, i= $\overline{1,n}$

$\Rightarrow \sum_{i=1}^{n} |x_i|^2 = 0 \Rightarrow \sqrt{\sum_{i=1}^{n} |x_i|^2} = 0 \Rightarrow \|x\| = 0.$

2) $\forall x \in R^n$

$$\|x\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n}|\alpha x_i|^2} = \sqrt{\sum_{i=1}^{n}\alpha^2|x_i|^2} = \sqrt{\alpha^2\sum_{i=1}^{n}|x_i|^2} = |\alpha|\sqrt{\sum_{i=1}^{n}|x_i|^2} = |\alpha|\ \|x\|.$$

3) $\forall x, y \in R^n$

$$\|x\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n}|x_i + y_i|^2} \le \sqrt{\sum_{i=1}^{n}|x_i|^2} + \sqrt{\sum_{i=1}^{n}|y_i|^2} = \|x\| + \|y\|$$

$\|x\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n}|x_i|^2}$ uchun normaning uchala sharti ham bajariladi. Demak, R^n chiziqli normalangan fazo bo'ladi.

Misol 1.2.3. $P : C^{(1)}_{[a,b]} \to R$ $P(x) = |x(b) - x(a)| + \max\limits_{a\le t\le b} |x^i(t)|$ bunda $C^{(1)}_{[a,b]} \longrightarrow [a,b]$ da aniqlangan 1 marta differensiallanuvchi uzluksiz funksiyalar fazosi P(x) ni norma aniqlash yoki aniqlamasligini ko'rsatamiz. Norma shartlarini tekshiramiz.

1) P(x) ≥ 0.

$P(x) = |x(b) - x(a)| + \max\limits_{a\le t\le b} |x^i(t)| \ge 0$. $P(x) = 0$ bo'lsa ya'ni $|x(b) - x(a)| + \max\limits_{a\le t\le b} |x^i(t)| = 0$.

Bu tenglik bajarilishi uchun $|x(b) - x(a)| = 0$ va $\max\limits_{a\le t\le b} |x^i(t)| = 0$ bo'lishi kerak . Chunki musbat sonlar yig'indisi faqat vq faqat ularning o'zlari nolga teng bo'lganda nolga teng bo'ladi. Demak, $x(b) - x(a)$ va $|x^i(t)| = 0$ ekan.

Bundan x(t) = C bunda C – ixtiyoriy o'zgarmas son $x(b) - x(a)$ va $x(t) = C$ tengliklardan ko'rinib turibdiki $x(t) = C$ ekanligi. Bu esa $P(x) = 0 \Leftrightarrow x = 0$ shartga ziddir. Demak, yuqorida P(x) funksional normani aniqlamaydi.

Ta'rif 1.2.4. L chiziqli normalangan fazo va shu fazo elementlari ketma-ketliki $\{x_n\}$ berilgan bo'lsin. Agar ixtiyoriy $x \in L$ element va $\forall \varepsilon > 0$ son uchun shunday $n_0 = n_0(\varepsilon)$ nomer topilib, $\forall\ n > n_0$ natural sonlar uchun $\|x_n - x\| < \varepsilon$ bo'lsa, $\{x_n\}$ ketma- ketlik x elementga yaqinlashadi deyiladi.

Misol 1.2.5. $C[-\pi, \pi]$ fazoda $x_n(t) = \frac{\sin nt}{n}$ ketma-ketligi x(t) = 0 funlsiyaga yaqinlashadi. Haqiqatdan ham $\|x_n - x\| = \|x_n\| = \max\limits_{t\in[v_1, v_1]} \left|\frac{\sin nt}{n}\right| = \frac{1}{n} \xrightarrow[n\to\infty]{} 0$.

Ta'rif 1.2.6. Agar ixtiyoriy $\varepsilon>0$ son uchun shunday n_0 (ε) nomer topilib, barcha $n_0 = n_0$ (ε) va barcha P natural solar uchun $\left\|x_{n+p}-x_n\right\|$ > ε tengsizlik bajarilsa $\{x_n\}$ ketma- ketlik fundamental ketma-ketlik deyiladi.

Misol 1.2.7. C $[-\pi,\pi]$ fazoda $f_n(t) = \left\{\dfrac{\sin^{2n} t}{2n}\right\}$ ketma-ketlikni qaraymiz.

$$\| f_{2n}(t) - f_n(t)\| = \max \cdot \left|\frac{\sin^{4n} t}{4n} - \frac{\sin^{2n} t}{2n}\right| \le -\pi \le t \le \pi \le \left|\frac{\sin^{4n} t}{4n}\right| \le \le$$

$$\frac{1}{4n} \underset{n\to\infty}{\to} 0 .$$

$\| f_{2n} - f_n\| \to 0$ $n\to\infty$. Demak, $\{f_n(t)\}$ ketma – ketlik C $[-\pi,\pi]$ fazoda fundamental ketma-ketlik ekan.

Ta'rif 1.2.8. Agar L chiziqli fazodagi (normalangan) ixtiyoriy fundamental ketma – ketlik v yaqinlashuvchi bo'lsa, bu fazoga to'la normalangan fazo yoki Banox fazosi deyiladi.

Misol 1.2.9. C $[-\pi,\pi]$ fazoda $f_n(t) = \left\{\dfrac{\sin^{2n} t}{2n}\right\}$ fundamental ketma-ketlikni qaraymiz. $f_n(t) \to f_0(t) = 0$ bo'lishini ko'rsatamiz.

$$\left\|f_n(t) - f_0(t)\right\| = \|f_n(t)\| = \max_{t\in[-\pi,\pi]} \left\|f_n(t)\right\| = \max_{t\in[-\pi,\pi]} \left\{\frac{\sin^{2n} t}{2n}\right\} =. \frac{1}{2n}$$

$$\left\|f_n - f_0\right\| \underset{n\to\infty}{\to} 0 \quad f_n \to f_0.$$

Bundan C $[-\pi,\pi]$ fazo to'la normalangan fazp bo'ladi.

Ta'rif 1.2.10. Normalangan fazoning qism fazosi deganda yopiq qism fazotushuniladi.

3§. Evklid fazosi.

Ta'rif 1.3.1. Bizga L haqiqiy chiziqli fazo berilgan bo'lsin. Agar $L_1 x L$ dekart ko'paytmada aniqlangan P funksional quyidagi to'rtta shartni qanoatlantirsa.

1) $P(x,x) \ge 0 \quad \forall x \in L$, $\quad P(x,x) = 0 \quad \Leftrightarrow \quad x=0.$

2) $P(x,y) = P(y,x)$, $\quad \forall x, y \in L$

3) $P(\alpha x,y) = \alpha P(y,x)$, $\quad \forall x, y \in L$, $\quad \forall \alpha \in R$

4) $P(x_1+x_2, y) = P(x_1, y) + P(x_2, y) \quad \forall x_1, x_2, \quad y \in L$

Skalyar ko'paytma kiritilgan chiziqli fazo. Evklid fazosi deyiladi va x,y elementning skalyar ko'paytmasi (x,y) orqali belgilanadi. Evklid fazosida norma $\|x\| = \sqrt{(x,x)}$ formula orqali aniqlanadi.

Misol 1.3.2. $\ell_2 = \{x = (x_1, x_2, \dots x_n) : \sum_{k=1}^{\infty} |x_k|^2 < \infty \}$ kvadrati bilan jamlanuvchi ketma-ketliklar fazosi. Bu yerda skalyar ko'paytma quyidagicha kiritiladi. $(x,y) = \sum_{i=1}^{\infty} x_i y_i$

1) Ixtiyoriy $x \in \ell_2$ uchun $(x,y) = \sum_{i=1}^{\infty} x_i y_i = \sum_{i=1}^{\infty} x_i^2 \geq 0$

$(x,y) = \sum_{i=1}^{\infty} x_i^2 = 0 \Rightarrow x_i^2 = 0 \Rightarrow x_i = 0, \ n = 1,2,\dots \Rightarrow x = 0 = x = 0 \Rightarrow x_i = 0.$

$i = 1.\overline{\infty} \Rightarrow x_i^2 = 0. \quad i = 1.\overline{\infty} \Rightarrow \sum_{i=1}^{\infty} x_i^2 = 0 \Rightarrow (x,x) = 0.$

2) *Ixtiyoriy* $x,y \in \ell_2$. $(x,y) = \sum_{i=1}^{\infty} x_i y_i = \sum_{i=1}^{\infty} y_i x_i = (y,x).$

3) $\forall \alpha \in R$ *va ixtiyoriy* $x \in \ell_2$. $(\alpha x, y) = \sum_{i=1}^{\infty} \alpha x_i y_i = \alpha \sum_{i=1}^{\infty} y_i x_i = \alpha \ (y,x).$

4) $x,y,z \in \ell_2$. $(x+y,z) = \sum_{i=1}^{\infty} (x_i y_i) z_i = \sum_{i=1}^{\infty} x_i z_i + \sum_{i=1}^{\infty} y_i z_i = (x,z)\ (y,z).$

Skalyar ko'paytmaning barcha shartlari bajariladi. Demak, ℓ_2 Evklid fazosiga misol bo'ladi.

Ta'rif 1.3.3. Cheksiz o'lchamli to'la Evklid fazosi Gilbert fazosi deyiladi. Shunday qilib ixtiyoriy tabiatli *f,g,...* elementlarining H to'plami Gilbert fazosi bo'lib, u quyidagi uchta shartni qanoatlatiradi.

1) *H* Evklid fazosi, ya'ni skalyar ko'paytma kiritilgan chiziqli fazo.

2) $\rho(x,y) = \sqrt{(x-y, x-y)}$ metrika ma'nosida H to'la fazo.

3) H cheksiz o'lchamli ya'ni unda cheksiz ko'p chiziqli erkli elementlar mavjud.

Misol 1.3.4. $l_2 = \{x = \{x_i\}_{i=1}^{\infty}, \sum_{i=1}^{\infty} |x_i|^2 < \infty \}$ fazoni Gilbert fazosi ekanligini ko'rsatamiz. Gilbert fazosining birinchi va uchunchi shartlari mos ravishda 1.3.2. va 1.1.10 misollarda ko'rsatilgan, shu sababli metrika ma'nosida ko'rsatish kifoya. $\{x^{(n)}\}$ - l_2 fazodagi fundamental ketma-ketlik bo'lsin. Bundan ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday N topilib ixtiyoriy n,m > N lar uchun

$$\rho\ (x^{(n)}, x^{(m)}) = \sqrt{\sum_{n=1}^{\infty} (x_k^{(n)} - x_k^{(m)})^2} \leq \varepsilon$$

$$\rho^2 (x^{(n)}, x^{(m)}) = \sum_{i=1}^{\infty} (x_k^{(n)} - x_k^{(m)})^2 < \varepsilon$$

bo'ladi. Bu yerda $x^{(n)} = (x_1^{(n)}, x_2^{(n)}, \dots x_k^{(n)}, \dots$ 1) dan ixtiyoriy κ uchun $(x_k^{(n)} - x_k^{(m)})^2 < \varepsilon$ ya'ni har bir κ uchun $\{x_k^{(n)}\}$ ketma-ketlik fundamental, shuning uchun yaqinlashadi: $x_k = \lim\limits_{n\to\infty} x_k^{(n)}$ bo'lsin x ketma-ketlikni $(x_1, x_2, \dots x_n, \dots)$ bilan belgilaymiz. Quyidagi shartlar bajarilishini ko'rsatish yetarli.

a) $\sum\limits_{k=1}^{\infty} x_k^2 < \infty$, $x \in \ell_2$.

b) $\lim\limits_{n\to\infty} \rho(x^n, x) = 0.$

(1) dan ixtiyoriy fiksirlangan. M uchun $\sum\limits_{k=1}^{M} (x_k^{(n)} - x_k^{(m)})^2 < \varepsilon$ Yig'indida faqat chekli hadlar qatnashganligi uchun n ni fiksirlab m $\to\infty$ limitga o'tamiz.

$\sum\limits_{k=1}^{M} (x_k^{(n)} - x_k^{(m)})^2 < \varepsilon$ tengsizlik ixtiyoriy M uchun o'rinli bo'ladi. m $\to \infty$ da

quyidagiga ega bo'lamiz. $\sum\limits_{k=1}^{\infty} (x_k^{(n)} - x_k^{(m)})^2 \leq \varepsilon$ (2)

$\sum\limits_{k=1}^{\infty} (x_k^{(n)})^2$ va $\sum\limits_{k=1}^{\infty} (x_k^{(n)} - x_k)^2$ qatorlar yaqinlashuvchiligidan $\sum\limits_{k=1}^{\infty} x_k^2$ qatorning ham yaqinlashuvchiligi kelib chiqadi. ε ning yetarli kichikligi va (2) tengsizlikdan $\lim\limits_{n\to\infty} \rho(x^{(k)}, x) = \lim\limits_{n\to\infty} \sum\limits_{k=1}^{\infty} (x_k^{(n)} - x_k) = 0$ yani $x_k^{(n)}$-x.

Bundan ℓ_2 fazoning to'laligi kelib chiqadi.

Ta'rif 1.3.5. $M \subset H$ gilbert fazosining qism fazosi bp'lsin. Barcha $f \in M$ elementlarga ortogonal bo'lgan $g \in H$ elementlar toplamni M^+=HOM orqali belgilaymiz ya'ni M^+=HOM = $\{ g \in H\ (f,g) = 0, \forall f \in M \}$. M^+ ham H ning qism fazosi ekanligini isbotlaymiz. Bu to'plamning qo'shish va songa ko'paytirish amallariga nisbatan yaqinligini ko'rsatamiz. Agar $g_1, g_2 \in M^+$ bo'lsa, u holda

$(\alpha_1 g_1 + \alpha_2 g_2, f) = \alpha_1 (g_1, f) + \alpha_2 (g_2, f) = 0$. Endi M^+ to'plamning yaqinligini ko'rsatamiz. Faraz qilaylik $g_n \in M^+$ elementlar ketma – ketligi $g \in H$ element yaqinlashsin . U holda skalyar ko'paytmaning uzunligiga ko'ra

$(g,f) = (\lim g_n, f) = \lim\limits_{n\to\infty} (g_n, f) = 0$.

Demak, $g \in M^+$, ya'ni M^+ yopiq qism fazo bo'lar ekan. M^+ qism fazo M qism fazoning ortogonal to'ldiruvchisi deyiladi.

Ta'rif 1.3.6. Agar H gilbert fazosining ixtiyoriy $a \in H$ elementini $f = h + h^1$,
$h \in M$, $h^1 \in M^+$ ko'rinishda tasvirlansa, u holda H fazo o'zaro ortogonal M va M^+ fazolarning to'g'ri yig'indisiga yoyilgan deyiladi va $H = M \oplus M^+$ ko'rinishida yoziladi. Sonoqli sondagi $H_1, H_2, ..., H_n$ ... gilbert fazosining to'g'ri yig'indisi $H = \sum\limits_{k=1}^{\infty} \oplus H_n$ quyigidagicha aniqlanadi.

$H = \{ h = (h_1, h_2, \ldots, h_n), h_n \in H_n \ \sum\limits_{n=1}^{\infty} \|h_n\|^2 < +\infty \}$. Skalyar ko'paytma quyidagicha kiritiladi. $(h,g) = \sum\limits_{n=1}^{\infty} (h_n, g_n)$, $g = (g_1, g_2, \ldots, g_n \ldots)$, $g_n \in H_n$.

4§.Hilbert fazolari.

Ta'rif: Cheksiz o'lchamli to'la Evklid fazosi Hilbert fazosi deyiladi.

Shunday qilib ihtiyoriy tabiatli $f, g, \varphi ...$ elementlarning H to'plami Hilbert fazosi bo'lsa u quyidagi uchta shartni qanoatlantiradi

1) H Evklid fazosi, yani skalyar ko'paytma kiritilgan chiziqli fazo.
2) $p(x,y) = \sqrt{(x-y, x-y)}$ metrik ma'nosida H–to'la fazo.
3) H – fazo cheksiz o'lchamli yani unda cheksiz elementli chiziqli erkli sistema mavjud

   Odatda separabel Helbert fazolari qaraladi, ya'ni H ning hamma yerida zich bo'lgan sanoqli to'plam mavjud. Bundan keyin biz faqat separabel Helbert fazolarini qaraymiz .

   1- misol $C_2[a,b]$ Evklid fazosi tola emas shuning uchun $C_2[a,b]$ Helbert fazosi bo'la olmaydi.

2- Misol l_2 va $L_2[a,b]$ lar cheksiz o'lchamli to'la Separabel Evklid fazolaridir.Shuning uchun ular Helbert fazolari bo'ladi.

Kompleks Evklid fazolari.

Haqiyqiy evklid fazolarida skalyar ko'paytmaning 1-4 aksiomalari quydagicha edi.

1) $(x,x)\geq 0,\forall x\in E,(x,x)=0\Leftrightarrow x=\theta$

2) $(x,y)=(y,x),\forall x,y\in E$

3) $(\lambda x,y)=\lambda(x,y),\forall\lambda\in R,\forall x,y\in E$

4) $(x_1+x_2,y)=(x_1,y)+(x_2y),\forall x_1,x_2,y\in E$

Biz 2 va 3 dan quydagiga ega bo'lamiz.

$(\lambda x,\lambda x)=\lambda(x,\lambda x)=\lambda(\lambda x,x)=\lambda^2(x,x)$.

Agar λ kompleks son bo'lsa, u holda $\lambda=i$ bo'lganda, $(ix,ix)=-(x,x)$ ya'ni x va *ix* vektorlarning skalyar ko'paytmasi bir vaqtda musbat bo'la olmaydi, bu esa 1-shartga zid ya'ni kompleks chiziqli fazoda holida 1,2, va 3 shartlar bir vaqtda bajarishi mumkin emas demak kompleks chiziqli fazolarda skalyar ko'paytmaning shartlarini biroz o'zgartirish kerak.

Konpleks chiziqli fazoda skalyar ko'paytmaning shartlarini keltiramiz

1) $(x,x)\geq 0,\forall x\in E,(x,x)=0\Leftrightarrow x=\theta$

2) $(x,y)=(\overline{y,x}),\forall x,y\in E$

3) $(\lambda x,y)=\lambda(x,y),\forall\lambda\in C,\forall x,y\in E$

4) $(x_1+x_2,y)=(x_1,y)+(x_2y),\forall x_1,x_2,y\in E$

2 va 3 da $(x,\lambda y)=\overline{\lambda}(x,y)$ kelib chiqadi haqiqatan ham.

$(x,\lambda y)=(\overline{\lambda y,x})=\overline{\lambda(y,x)}=\overline{\lambda}(\overline{y,x})=\overline{\lambda}(x,y).$

Misol $E=C^n$ - kompleks chiziqli fazo. Bu fazoda skalyar ko'paytma quydagicha kiritiladi.

$$(x,y)=\sum_{k=1}^{n}x_k,\bar{y}_k$$

5§. Chiziqli operatorlar.

Ta'rif 1.5.1. E fazoning har bir elementiga E_1 fazoning yagona elementini mos qo'yubchi $y = Ax$ $(x\in E,\ y\in E_1)$ akslantirish operator deyiladi.

Ta'rif 1.5.2. Agar ixtiyoriy $x,y \in E$ elementlar va $\forall \alpha\beta \in C$ sonlar uchun $A(\alpha x + \beta y) = \alpha Ax + \beta Ay$ tenglik o'rinli bo'lsa, A ga chiziqli operator deyiladi. A operator aniqlangan barcha $x \in E$ lar to'plamini D_A bilan belgilaymiz va uni A operatorning aniqlanish sohasi deb ataymiz. Umuman aytganda $D_A = E$ bo'lishi shart emas lekin D_A ning chiziqli ko'p xillik bo'lishi talab qilinadi ya'ni agar $x,y \in D_A$ bo'lsa, u holda $\alpha,\beta \in C$ uchun $\alpha x + \beta y \in D_A$.

Misol 1.5.3. A: $C_{[0,1]} \to C_{[0,1]}$. $(Ax)(t) = x(0)\, t + x(\frac{1}{2}) + \frac{1}{2} x(1)$ operatorning chiziqli bo'lishini ko'rsating. Ixtiyoriy $x,y \in C_{[0,1]}$ va ixtiyoriy $\alpha,\beta \in R$ sonlar uchun $(A(\alpha x + \beta y))(t) = (\alpha\, x(0) + \beta y(0))\, t + \alpha\, x(\frac{1}{2}) + \beta y(\frac{1}{2}) +$

$$+\frac{1}{2}(\alpha\, x(1) + \beta y(1)) = \alpha\, x(0)t + \beta y(0)t + x(\frac{1}{2}) + \beta y(\frac{1}{2}) + \frac{1}{2}\alpha\, x(1) + \beta y(1) =$$

$$\alpha\, (x(0)t + x(\frac{1}{2}) + \frac{1}{2}(1)) + \beta (y(0)t + y(\frac{1}{2}) + \frac{1}{2}\, y(1)) = \alpha\, (Ax)(t) + \beta\, (Ay)(t).$$

Bundan A operatorning chiziqli ekanligini ko'rsatadi.

Misol 1.5.4. $A: L_{2\,[0,1]} \to C$ $A(x) = \int_2^1 const\, x t dt$

operatorni chiziqlikga tekshiramiz.

$\forall x,y \in L_{2\,[0,1]}$ va $\forall \alpha,\beta \in C$ sonlar uchun

$$A(\alpha x + \beta y) = \int_2^1 const\,(\alpha\, x(t) + \beta\, y(t))\, dt = \int_2^1 \alpha const\, x(t)\, dt + \int_2^1 \beta const\, x(t)\, dt =$$

$= \alpha A(x) + \beta\, A(y)$.

Demak, berilgan operator chiziqli ekan.

Ta'rif 1.5.5. $A{:}E \to E_1$ va $x_0\ D_A$. $A x_0 = y_0$ bo'lsin. Agar $y_0 = A x_0 \in E_1$ ning ixtiyoriy V atrofi uchun x_0 nuqtsning shunday U atrofi topilib, $\forall x \in U$, $V \in D_A$

lar uchun $Ax \in V$ bo'lsa, A operator $x = x_0$ nuqtada uzluksiz deyiladi. Agar $\forall\ \varepsilon > 0$ sin uchun shunday $\delta = \delta(\varepsilon) > 0$ son mavjud bo'lib, $\|x - x_0\| < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x \in D_A$ lar uchun $\|Ax - Ax_0\| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa A operator $x = x_0$ nuqtada uzluksiz deyiladi.

Ta'rif 1.5.7. $Ax = 0$ tenglikni qanoaylantiruvchi $x \in E$ lar to'plamini A operatorning yadrosi deb ataymiz va uni $Ker\, A$ bilan belgilaymiz. Birorta $x \in D_A$ uchun $y = Ax$ tenglik bajariladigan $y \in E_1$ lar to'plamini A operatorning qiymatlar shohasi yoki obrazi deb ataymiz va uni ImA yoki R(A) bilan belgilaymiz.

Ta'rif 1.5.8. $A{:}E \to E_1$ chiziqli operator bo'lsin. Agar shunday $C>0$ son topilib, ixtiyoriy $x \in D_A = E$ uchun $\|Ax\|_{E_1} \le C\,\|x\|_E$ tengsizlik bajarilsa A chegaralangan operator deyiladi. Agar chiziqli $A{:}E \to E_1$ operator chegaralangan bo'lsa, $\|A\| = \inf\{c>0{:}\ \|Ax\|_{E_1} \le C\,\|x\|_E\ ,\ \forall x \in D_A\}$ son A operatorning normasi deyiladi.

Teorema 1.5.9. $A{:}E \to E_1$ chiziqli operator uzluksiz bo'lishi uchun chegaralangan bo'lishi zarur va yetarli. Bunda E va E_1 lar normalangan fazolar.

Misol 1.5.10. $A{:}\quad \ell_2 \to \ell_2 .\quad Ax = (\frac{x_1}{2},\ \frac{1}{4}x_2,\ \frac{1}{8}x_3,\ \dots,\ \frac{1}{2^n}x_n, \dots)$ operatorni uzluksizlik va chegaralanglikka tekshiramiz. A operatorning chiziqliligini ko'rsatamiz. $A(\alpha x + \beta y) = (\frac{\alpha x_1 + \beta y_1}{2},)\ \frac{1}{4}(\alpha x_2 + \beta y_2\ ,\ \dots,\ \frac{1}{2^n}$

$(\alpha x_n + \beta y_n), \dots) = \frac{1}{2}\alpha x_1 + \frac{1}{2}\beta y_1\ ,$

$\frac{1}{4}\alpha x_2 + \frac{1}{4}\beta y_2,\ \frac{1}{2^n}\alpha x_n + \frac{1}{2^n}\beta y_n = (\frac{1}{2}\alpha x_1,\ \frac{1}{4}\alpha x_2, \dots, \frac{1}{2^n}\alpha x_n, \dots) +$

$+ (\frac{1}{2}\beta y_1,\ \frac{1}{4}\beta y_2, \dots, \frac{1}{2^n}\beta y_n, \dots) = \alpha Ax + \beta Ay.$

Demak, A chiziqli $\|Ax\|_{\ell_2} = \sqrt{\sum_{n=1}^{\infty}(\frac{1}{2^n}x_n)^2} = \sqrt{\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2^n}x_n^{\ 2}} \le \frac{1}{2}$

$\sqrt{\sum_{n=1}^{\infty} x_n^{\ 2}} = \frac{1}{2}\ \|x\|_{\ell_2} \Rightarrow C = \frac{1}{2}.$

